



“SURAT” DOSTONI VA MUALLIF HAQIQATI

Mirkomilova Ruxsora,

O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207421>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirtemirning mashhur asarlaridan biri “Surat” dostonining yaratilishi va u haqida keng adabiyot ommasining iliq fikrlari ifodalangan. Poemaning prototiplari va hayotiy haqiqatlariga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: poema, lirik qissa, prototip, poetic kashfiyot, yaratilish tarixi va boshqalar.

Mirtemirning “Qoraqalpoq daftari” she’rlar turkumiga “Surat” poemasi kiritilgan bo‘lib u shoir ijodidagi eng mashhur asarlardan biri hisoblanadi. U shoir ijodininggina emas balki, o‘zbek adabiyotining 50-yillaridagi poemachiligidagi yuksak cho‘qqilardan biri deb baholanadi. “Surat” poemasi bir qator tadqiqot va maqolalarda shoir ijodining poetik kashfiyoti darajasidagi asar sifatida ta’kidlanadi. Mashhur munaqqid Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo‘lib, markaziy matbuotda maqolalar bilan chiqib, shunday deb yozgan edi: [“Surat” og‘ir hayot yo‘lini kechirgan, “o‘limlardan hatlab kelgan”, urush olovlarida chiniqqan, bu og‘ir sinovlarning hammasidan ulg‘ayib, ma’naviy dunyosi boyib chiqqan odamning nidosiday tuyuladi. “Surat” dostoni insonning qalbi, ruhiy dunyosi haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi].

Mirtemir ijodining fidoyi tadqiqotchilaridan biri, mashhur adabiyotshunos Naim Karimov esa shoir adabiy merosiga bag‘ishlangan izlanishlaridan birida “Surat” dostoni haqida yuqoridagi fikrlar bilan o‘xshash bo‘lgan mulohazani o‘rtaga tashlaydi; “Surat” – so‘nmas muhabbat haqidagi, muhabbatga, insoniy qadryatlarga sadoqat haqidagi asar. Lirik qissa beqiyos tarovati va latofati, inson ruhiy fojeasi g‘oyat nozik va nafis talqin etilgani bilan ajralib turadi”. Shuningdek adabiyotshunoslarning kattagina qismi bu poemani quyidagicha baholashadi: “O‘zbek she’riyatining nodir bir namunasi bo‘lib qolgan bu asardagi milliy vatanparvarlik ruhi tuyg‘ularining xalqona tabiatida, badiiy tafakkurning sharqona ruhida zuhr topadi”. Ushbu fikrlar orqali anglashiladiki, “Surat” dostoni bu oddiy asar emas, u muallifning shoh asarlaridan biri hisoblanibgina qolmay, u bir vaqtning o‘zida o‘zbek poemachiligining ham durdonasidir.

“Surat” dostonining badiiy poeziyasi bir taraf-u, uning yaratilish tarixi bir tomon. Shuning uchun ham keng ijod ommasi balki oddiy kitobxonlar ham asrning



yaratilish tarixi haqida ko‘plab qiziqishlar bildirishgan. Asosan, lirik qahramonning prototiplari masalasi ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otgan. Adabiyotshunoslikda bu masalani talqin qilishda turli qarashlar, har xil yondashuvlar bor. Poema haqida qiziqish bildirgan har bir adabiyotshunos asar tarixi haqida atroflicha mulohazalar qilishgan. Biz ham ushbu ilmiy ishimizda doston tarixiga nazar tashlashni zarurat deb hisobladik va asarning yaratilishiga “turtki” bo‘lgan hayotiy fakt va badiiy to‘qimaning me‘yorini aniqlashga urinib ko‘ramiz. Poemada tasvirlangan voqealarning Qoraqalpoq zamini bilan bog‘liq emasligini ma‘lum darajada oydinlashtirishga harakat qilamiz..

Yuksak mahorat bilan bitilgan muayyan asrning ijodiy tarixini o‘rganishni bitta yoki ikkita maqola yoki tadqiqot bilan chegaralab qo‘yish mumkin emas. Bu shunday murakkab, ko‘p qirrali jarayonki, uni qanchalik o‘rganib, ichiga kirib borganingiz sari yangidan yangi hayotiy faktlarga, asarga asos bo‘lgan turmush voqealariga duch kelaverasiz. Asarga asos bo‘lgan hayotiy lavhalarni topaverasiz. Bu jahon adabiyoti tarixidan sinalgan tajriba hisoblanadi. Masalan, I. Andronikov Lermontovning ba‘zi she‘rlarining yaratilish tarixi uchun hayotining bir qancha yillarini sarf qilgan bo‘lsa, Pushkinning birgina “Haykal” she‘riga maxsus monografiya bag‘ishlangan. Bunday misollar o‘zbek adabiyotida ham bisyor. Mashhur adabiyot namunasining yaratilish tarixiga bag‘ishlangan o‘nlarcha ko‘lamdor ilmiy tadqiqotlarni misol qilib keltirish mumkin. “Surat” lirik qissasi ham shunday asarlar sirasiga kiritilgan. Uning ijodiy tarixi qanchalik ko‘p o‘rganilsa, hayotga yaqinligi, haqqoniylik sirlari ochilib kelaveradi. Shularni hisobga olgan holda biz “Surat” lirik qissasining ijodiy tarixiga murojaat qiishni, hali uni aniqlanmagan, o‘rganilishi zarur bo‘lgan ba‘zi bir qirralarini yangi ilmiy va adabiy faktlar asosida tahlil qilishni zarurat deb hisobladik. O‘ylaymizki, bizning bu sa‘y-harakatlarimiz asarning ijodiy tarixi haqidagi ma‘lumotlarning ustini to‘ldiradi, asrning hayotiy asoslari to‘g‘risidagi o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi.

Adabiyotshunos T. Xalilov “Mirtemir mahorati” risolasida, shuningdek, bir maqolasida bu masalaga maxsus to‘xtalib, “Surat” ning yaratilishiga “turtki” bo‘lgan hayotiy voqea yuzasidan shoirga savol bilan murojlat qiladi. Ijodkor bu savolga bir muncha kengroq va aniqroq javob beradi. [*“Surat” ga timsol bo‘lgan voqea o‘ttizinchi yillarning menga “sirdosh” odamning taqdirida bo‘lib o‘tgandi. O‘sha odamning mashuqasi atiga ikki yillik ayriliqqa, sinovga bardosh berolmay, ahdini buzadi. Bu o‘ngilsiz fakt qalbimni larzaga soldi. Ana shu larzaning sachratqisi sifatida “Sen u yonga ketding, men bu yonga” misrasi bilan boshlanadigan she‘r*



maydonga keldi. Bu bilan qanoatlanmadim. U haqda yirikroq asar yozishni ko‘nglimga uzoq vaqt tugib yurdim. Kutilmaganda beburd go‘zal bilan tushgan surat chiqib qoldi. Bu tirnoqday surat qalbidagi eski yarani yangilab yubordi, yozmasam bo‘lmaydigan holatga soldi]. Shoirning javobidan oydinlashadiki, “Surat” dagi voqeaning negizi, uning ildizlari shoirga bevosita aloqador ya’ni “sirdosh”, qalbiga yaqin bir odamning taqdiriga borib taqaladi. Ayniqsa kitob orasidan “beburd go‘zal bilan birga tushgan suratning chiqib qolishi va bu holatning shoir “dard” ini hurujga keltirib, qo‘liga qalam tutqazishi va ichidagi bor gaplarni qog‘ozga to‘kishga “majbur” bo‘lishi ham bejiz emasdek tuyuladi. “Surat” dagi hayot haqiqatlari shoirning shaxsiy hayot lavhalariga ham tegishli degan mantiqiy xulosani keltirib chiqaradi o‘quvchida. Ahdida turolmagan va uni buzgan bevafo mashuqa shoir xayolini bezovta qilib, qalbiga “tinchlik” bermaydi. Sevgisiga sodiq yigitni ulug‘lab, “beburd go‘zal” dan noroziligini she’rga solib, ko‘nglini bo‘shatgisi, qalbida jo‘sh urib turgan ziddiyatli hissiyotlaridan tamomila qutilgisi keladi. Bu she’r keyinchalik yozilajak “Surat” dostoni uchun “xamrturush” vazifasini o‘tagan bo‘lsa ajab emas. Chunki she’rning mazmunida ham shaklida ham poemaga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayotiy materiallar, aniq poetik obrazlar-u, ularning iroda yo‘nalishlari, ma’lum darajada buning aksini topgan. Aytishimiz mumkinki, ushbu she’r poemaning ilk “qoralama” si, shoirning birinchi ijodiy tajribasidir.

*Sen u yonga ketding, men bu yonga,
Men oldinroq, sen bir oz keyin.
Ikkimiz ham keldik gulistonga,
Yuz ko‘rishdik endi ne deyin?*

Bizga ma’lumki Mirtemir 1932-yildan to 1935-yilga qadar mamlakatda yuritilgan notog‘ri siyosiy vaziyat qurboni sifatida hib va surgunda bo‘lgan. Surgundagi hayotini tugatib oilasi bag‘riga qaytgan Mirtemir Tursunovning shaxsiy hayoti endi avvalgiday bo‘lmaydi, uni sevimli rafiqasi unga bevafoq qilgan ya’ni boshqa turmush qurib bo‘lgan edi. Bu haqida Naim Karimovning “Mirtemir” ma’rifiy-biografik romanida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan:

[1935-yil yanvarida azob uqubatlardan qutulib, mehrga zor bo‘lib qaytganida, uning boshqa bir kishiga turmushga chiqib ketganini ko‘radi. U xotinidan bunday xiyonatni kutmagan edi. U Xalimani eridan chiqishga, u bilan uzilgan turmush rishtalarini qayta, ipakdan yasab, yangi muhabbat chamanzorini bunyod etishga chorlaydi. Ammo Xalima bunday jasoratga qodir emas edi].



Yuqoridagi satrlar shoirning achchiq nidosi bo‘lib ommaga taqdim etildi. She‘r davomida shunday satrlar keltiriladi:

Nechun yuzlaringda hijolat bor,
Nega hayron shahlo ko‘zlaring?
Nechun lolsan, nahotki bu iqror?
Lablaringda qoldi so‘zlaring?

Shoir bu xiyonatni umrining oxiriga qadar unita olmadi, Xalimaga qayta imkon bersa ham u rad javobini berdi, taqdirga tan berib boshqa ayol bilan hayot yo‘llarini bog‘ladi. Xiyonatga javobi shu otashin she‘r bilan cheklanardi agarda oradan qancha yillar o‘tib “dafatan sarg‘aygan qog‘ozlar, titilib ketgan kitoblarorasidan yosh Xalimaning surati “paq” etib chiqib qolmaganda”.

Qaydan chiqib qoldi bu balo surat...

Lekin aynan “shu balo surat” ning chiqib qolishi shoirning qarib yigirma yil avvalgi otashin muhabbati va bu muhabbatning shoir hayotida qoldirgan o‘chmas olovli og‘ir izi bugungi kunda o‘zbek adabiyoti xazinalaridan biri bo‘lgan lirik qissaning yaratilishi uchun turtki bo‘ldi.

Na oltin na javohir edim...
Armonli bir yosh shoir edim.
Zuhro bo‘lmasang ham chiroyda,
Men ishqingda naq Tohir edi.

Toshlon o‘ldi, degan kim axir?
Gulday so‘ldi, degan kim axir?
Nahot poymol qutlug‘ ishq ahdi,
Bol bo‘lurmi shunchalar taxir?...

[Eski yaralar ochilib, ulardan sachragan qon bugun Mirtemirning “Surat” nomli go‘zal lirik qissasining har hujayrasida yashamoqda. Bu qon tomchisida mash‘um davrlar, sinovlik yillar, xuddi shabnamdagi quyoshdek tovlanib turbidi] - deya asarga ta‘rif beradi professor Naim Karimov.

“Surat” voqealarining ikkinchi jahon urushi yillariga ko‘chirilgani, asar bosh qahramoni Toshlonning urushga ketib, frontda to‘rt yil qon kechib, yorug‘ yuz bilan yurtiga qaytgani, ammo sevimli rafiqasi, suyukli yorining bevafoqlik qilib boshqa kishiga turmushga chiqib ketishi kabi voqealar tizmasi kegalilik sobiq jangchining achchiq qismatiga juda o‘xshaydi. Shoir dostonning “Haftada, oyda...” bo‘limida:

Haftada kel, mayli, oyda kel,

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Amaki de, aka de, mayli...
Ammo qolmay albat mayda kel,
Uzoqmas-ku, hozir Kegayli!

Deya yozadiki, o‘quvchi ushbu poema o‘sha kegaylilik jangchi haqida ekan degan xayolga boradi.

Garchi shoir bu voqealar (asar muallifi va sobiq jangchining shaxsiy hayotida turli davrda sodir bo‘lgan ko‘ngilsiz voqealar nazarda tutilmoqda) dan poema syujetini shakllantirishda unumli foydalangan bo‘lsada, zamon ruhini, davr qahramonini to‘laroq va yorqinroq gavdalantirish, hayot haqiqatini kengroq doirada ko‘rsatish maqsadida, shunga o‘xshash yana o‘nlab insonlar taqdirini o‘rgangan ya‘ni o‘ziga qismatdoshlarni qidirgan. Turmush faktlarini to‘plagan va muayyan g‘oyaga moslashtirib “Qayta bichib, qayta tikkan”, badiiy tahlil qilgan. Chinakkam badiiy asar va uning badiiy to‘qimasi aynan shunday usulda, ko‘p izlanish, ko‘p taqdirlarni o‘rganish asosida yaratiladi, bir yoki ikki hayotiy voqeaga emas, o‘nlab, balki yuzlab faktlarga tayangan holda yoziladi. Shunday ijodiy mehnat qilingandagina o‘sha asarning ishontirish kuchi baquvvat bo‘ladi va asl san‘at ishi sifatida ardoqlanadi. Shun ma‘noda “Surat” Mirtemirning, qolaversa butun o‘zbek adabiyotining katta yutug‘i bo‘la oldi. Barchaga birdek suyukli asar bo‘lishining sabablaridan biri ham mana shundadir.

Mirtemir poemasidagi surat – bu shoirning kitoblari orasidan chiqib qolgan “beburd go‘zal surati”. “Surat” ning muqaddima qismida shunday satrlar bor:

Och nazarim tushar suratga...
Surat, surat! Nega sen tilsiz?
Termulaman suratga, xatga...
Janglarda yor eding-ku, o, qiz!
Surat, surat! Nega sen tilsiz?

Mirtemir talqinidagi surat - lirik qahramonning muhabbatiga sadoqatini, insonning ruhiy kechinmalarini, ichki tug‘yonini ifoda etuvchi lirik obraz.

“Surat” ga asos bo‘lgan hayotiy voqeaning zamiri juda mustahkam. Asar ruhiga hamohang. Mavzuni yoritish uchun qulay va tipik voqealardir. Muallifning asar voqealarini 30-yillardan urush yillariga ko‘chirishi muayyan maqsad bilan qilingan, chunki shaxsga sig‘inish davrining qurboni bo‘lgan shaxs taqdiri va urush yillaridagi jangchining qismati bilan almashtirilishi o‘zini to‘la oqlagan va poemaning hayotiyligi, ishonarli chiqishini ta‘minlagan. Bosh qahramon qismatida ro‘y bergan voqealarni shoirning o‘ziga yoki o‘sha kegaylilik sobiq jangchi hayotiga nisbat



berishni o‘quvchi xayoliga ham keltirmaydi. Bu o‘sha davr uchun tipik bo‘lgan bir hayotiy manzara deb qaraydi va shunday qabul qiladi. Aslida, haqiqatdan ham shunday. “Surat” dagi voqealar II jahon urushi yillarida hayotda ancha muncha uchrab turgani barchaga birdek ma‘lum. Urush tufayli paydo bo‘lgan qiyinchiliklarga, ayriliqlarga chiday olmay, irodasizlik qilib yo‘ldan adashgan ayollar, hatto xiyonat ko‘chasiga kirib ketganlar ham ko‘p topilgan. Bunday ayollarning bir emas ikki emas yuzlab topilgani afsuski achchiq haqiqat. Bu real voqelik ko‘pgina badiiy adabiyotlarda o‘zining tasdig‘ini topgan. Bunday holatga zamoni ayblash o‘rinli bo‘lar, lekin chin e‘tiqod egasi bo‘lgan ayollar bunday ishni o‘z ayollik sha‘niga isnod, qolaversa qon kechib yurgan umr yo‘ldoshiga mislsiz xiyonat ekanligini bilgan ayollar ham bisyor ekanligini shoir o‘zining “Toshbu” she‘rida ko‘rsatib bergan. Nafaqat ko‘rsatdi balki, xiyonatkor ayollarga nisbatan asl ayol mana bunday bo‘ladi deya ko‘zgu ham tuta oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Naim. Mirtemir. -Toshkent: Meriyus, 2012. -281 b.
2. Mirtemir. “Asarlar” 1-tom. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashtiyoti. -Toshkent: 1970. -302 b.
3. Mirtemir. Asarlar 3-jild. she‘riy turkumlar, dostonlar, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1982, 338 bet.
4. Mirtemir. Asarlar 1-jild. She‘rlar, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980, 382 bet.
5. Xalilov. T. Mirtemir mahorati. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent, 1980, 126 bet.
6. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. Adabiy-tanqidiy maqolalar. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1970, 461 bet.